

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS  
TA‘LIM VAZIRLIGI  
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI  
O‘ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI**

**KAMOLIDDIN AZIMOV**

# **ORKESTR SINFI**

*(Simfonik orkestr)*

*Oliy ta‘lim muassasalarining 1-bosqich talabalari uchun  
o‘quv qo‘llanma*

Ta‘lim yo‘nalishi: 5150700 - Cholg‘u ijrochiligi  
(puflama va zarbli cholg‘ular)

Fan nomi: Orkestr sinfi (kamer yoki simfonik orkestr)

**Toshkent – 2022**

**UDK: 954.959**

**КБК: 85.954 (У36)**

**A -17**

Ushbu o'quv qo'llanma O'zbekiston davlat konservatoriyasi Ilmiy kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan.

Данное учебное пособие рекомендовано к изданию Учёным Советом Государственной консерватории Узбекистана

**Mas'ul muharrir:**

G'. Abrorov - O'zbekiston davlat konservatoriyasi "Orkestr dirijyorligi" kafedrasini mudiri, dotsent

**Taqrizchilar:**

E. Azimov - O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, O'zbekiston davlat konservatoriyasi "Orkestr dirijyorligi" kafedrasini professori

S. Turatov - O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti "Cholg'u ijrochiligi" kafedrasini dotsenti

Mazkur o'quv qo'llanma oliy ta'lim muassasalarining 1-bosqichda tahsil oluvchi talabalariga mo'ljallangan. Qo'llanmada orkestr ijrochiligiga oid nazariy hamda amaliy masalalar keng yoritilgan. Jumladan orkestr guruhlaridan boshlab, to'liq tarkibgacha bo'lgan ketma-ketlikdagi musiqiy asarlarning tahlili va ularni ijro etish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar bayon etilgan.

Данное учебное пособие предназначено для студентов 1-курса Высших образовательных учреждений. В пособии широко освещены теоретические и практические вопросы, связанные с оркестровым исполнением. В частности, изложены методические указания по анализу и исполнению музыкальных произведений, начиная от оркестровых групп и заканчивая полным составом.

*This textbook is intended for 1st year students of Higher educational institutions. Theoretical and practical issues related to orchestral performance are widely covered in the manual. In particular, the guidelines for the analysis and performance of musical works, starting from orchestral groups and ending with the full composition, are set out.*

**ISBN 978-9943-7475-2-4**

## KIRISH

Mamlakatimizda davlatimiz rahbari tashabbusi bilan ishlab chiqilgan 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi doirasida xalq manfaatlariga qaratilgan keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Yoshlarni madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb qilish, ularning axborot texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish, kitobxonlikni targ‘ib qilish, xotin-qizlar bandligini oshirishga qaratilgan 5 ta muhim tashabbus hayotga samarali tatbiq etilmoqda.

Bundan tashqari Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning 2021 yilga bag‘ishlangan Oliy Majlisga va xalqqa murojaatnomasida ushbu yilni— “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash” yili deb e‘lon qildilar. Yil davomida fan, ta‘lim, madaniyat kabi sohalarga yanada alohida e‘tibor qaratilishi va chuqur islohotlarni amalga oshirilishi haqidagi rejalar tuzildi. Yurtimizda yoshlarga ayniqsa ta‘lim sohasiga berilayotgan bir paytda, musiqa san‘atida ham talaygina ishlar amalga oshirilmoqda.

Yuqorida keltirilgan qaror va tashabbuslarning amaliy natijasi sifatida orkestr ijrochiligi ham so‘nggi yillarda tobora rivojlanib kelmoqda. Musiqa ta‘limi maskanlarida orkestr sinfi darsi uchun o‘quv soatlari ajratilgan bo‘lib, talabalarning har tomonlama yetuk va mahoratli musiqachi bo‘lib shakllanishiga xizmat qiladi.

Musiqa cholg‘ularida ijrochilik paydo bo‘lishi bilanoq, jamoa bo‘lib ijro etish san'ati ham asta – sekin shakllana boshladi. Ansambl<sup>1</sup>, orkestr<sup>2</sup> kabi tushunchalari ham kirib keldi. Musiqiy jamoalarning vujudga kelishi - ko‘p ovozli musiqiy asarlarning dunyoga kelishiga turtki bo‘ldi. Ayniqsa, orkestr ijrochiligi musiqa san'atining ajralmas qismiga aylanib ulgurdi. Dunyo miqyosida tan olingan orkestr turlari ichida simfonik, damli cholg‘ular, torli cholg‘ular, xalq cholg‘ulari, estrada-simfonik orkestrlari kabi

---

<sup>1</sup>Ansambl (fransuzcha ensemble - birgalikda) – bir musiqiy asarni ikki va undan ortiq musiqachi yoki xonandalarni birgalikda ijro etishidir.

<sup>2</sup>Orkestr – (gr. Orchestra) qadimgi Gretsiyada sahna oldidagi joy ya'ni tragediya ijrosi paytida xor jamoasi joylashgan joy tushunilgan.

musiqiy jamoalar barchamizga ma'lum. Shularning orasida simfonik orkestr dunyoviy musiqiy-madaniy merosni namoyon etuvchi jamoalardan biri hisoblanadi.

Orkestr sinfi fanining asosiy maqsadi simfonik orkestr va ansambllar uchun yuqori malakali sozanda ijrochilarni tayyorlashdir. Orkestr sinfi ijrochilarning ko'p jihatdan mukammal tarzda voyaga yetishida muhim rol o'ynaydi, xususan nafaqat mohir ijrochi, balki keng dunyoqarashga ega sozanda ijrochi bo'lishida ham o'z o'rniga ega bo'ladi.

Konservatoriyaning I bosqich bakalvr talabalari o'quv rejasida orkestr sinfi (kamer yoki simfonik orkestr) uchun 216 soat belgilangan. Unda talabalar simfonik orkestr uchun yozilgan o'zbek va jahon kompozitorlarining asarlarini notaga qarab ijro etish ko'nikmalarini shakllantirishlari kerak.

O'quv qo'llanmaning maqsadi– orkestr ijrochiligiga oid ko'nikmalarni shakllantirish hamda ularni rivojlantirishdan iborat. O'quv qo'llanmada fan bilan bog'liq boshlang'ich nazariy ma'lumotlar, gamma va mashqlar, uslubiy tavsiyalar hamda partituralar berilgan.

O'quvqo'llanma – Kirish, I va II boblar, glossariy, partituralar va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat:

**I BOB. NAZARIY QISM.** “Orkestr sinfi vazifalari”, “Orkestrning tuzilishi va joylashuvi”, “Orkestr partiyalarini o'qish” kabi kichik mavzularga bo'linib, mavzu bo'yicha savol va topshiriqlarni o'z ichiga olgan. Shu bilan birga orkestrda dinamika va shtrixlarni hosil qilish imkoniyatlari yoritilgan. Orkestr guruhlarining xususiyatlaridan kelib chiqib, har bir guruh va to'liq tarkib uchun maxsus gamma va mashqlar berilgan.

**II BOB. AMALIY QISM.** Amaliy mashg'ulotlar olib borish uchun dastlab orkestrning kichik tarkibi uchun so'ngra to'liq tarkib uchun asarlarning oddiydan murakkabgacha bo'lgan tartibda partituralar hamda ijrochilikka oid uslubiy tavsiyalar keltirilgan.

Umuman olganda o'quv qo'llanma, orkestr sinfi fanidan o'quv jarayonida talabalar bilan amaliy mashg'ulotlar olib borishda, konsertga tayyorgarlik ko'rish jarayonlarida foydalanish uchun qulaylik yaratadi. Shuning bilan birgalikda

qo'llanmadan dirijorlik sinfida hamda talabalarning orkestr bilan ishlash amaliyotida ham foydalanish mumkin.

Ushbu o'quv qo'llanma ustozlar hamda muallifning shu kungacha ishlagan tajribasi asosida yaratilgan. Hurmatli talabalar qo'lingizdagi kitob orkestr sinfi fanidan bilim va ko'nikmalingizni oshirishda hamda jamoaviy ijrochilik mahoratingizni oshirishda xizmat qilgan bo'lsa maqsadimizga erishgan bo'lamiz.

## I BOB. NAZARIY QISM

---

### 1.1. Orkestr sinfining maqsad va vazifalari

Orkestr sinfi – talabalarning musiqiy-estetik madaniyatini rivojlantirishga, musiqiy dunyoqarashini kengaytirishga, orkestrda ijrochilik ko'nikmalarini oshirishga qaratilgan amaliy mashg'ulot turi hisoblanadi.

Orkestr sinfining maqsadi – talabalarda jamoa ijrochiligi ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishdir. Fanning asosiy ahamiyati shundaki, bunda talabalar bir qator ijodiy vazifalarni bajarishga kirishadi. Bularga ijro etilayotgan asarning xarakterini aniqlash, partiyadagi musiqiy-ifodaviy vositalar yordamida badiiy obrazni gavdalantirish, ansambl bo'lib ijro etish jarayonida ritm, dinamika, shtrixlar hamda kuy yo'lining agogikasini hosil qilish kabilar kiradi. Ijodiy jarayon talabalarda mustaqil bo'lishga, assotsiativ fikrlashni rivojlantirishga, musiqiy qobiliyatni oshirishga xizmat qiladi. Darslarni quyidagi vazifalarga yo'naltirgan holda olib borish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- talabalarning musiqiy dunyoqarashini hamda badiiy didini rivojlantirish;
- orkestr talabalari tomonidan ijro etilayotgan musiqaning ohangdorligini, garmoniyasi va ritmini idrok etish qobiliyatini shakllantirish;
- orkestrda partiya ustida ishlash mobaynida talabalarda ladni sezish, tembr, garmonikhamda dinamik eshitish qobiliyatini, hamohanglikdagi cholg'u improvizatsiyalarida (badiha) tezlik suratini (temp) his qilishni shakllantirish;
- talabalarda hissiy munosabatlarga javobgarlikni tarbiyalash;
- turli cholg'ulardan foydalanish jarayonida musiqiy xotirani, ichki eshitish qobiliyatini, musiqiy fikrlashni rivojlantirish;
- talabalarda jamoa bilan ijro etilgan pyesalar, jo'mavozlik qiluvchi asarlar yoki o'zi ijro etayotgan cholg'udagi jummlar, kuy ohanglariga to'g'ri tavsif berish qobiliyatini oshirish;

Talabalarning ijodiy rivojlanish mezonlari esa quyidagilardan iborat:

- ijodiy vazifalarni bajarish aniqligi;
- cholg'uda ijro etish mahorati ko'nikmasining sifati;
- mashg'ulotlardagi faollik darajasi;

Shuni aytib o'tish kerakki, orkestr sinfi mashg'ulotlariga qatnashayotgan talabalarning idodiy rivojlanishi o'qituvchi-rahbarning tayyorgarligiga hamda ijodiy faolligiga bog'liq. Tanlangan asarlarning rang-barangligi, repertuarni o'zlashtirish mahorati, har semestr yakunida konsert chiqishlarini tashkillashtirish, talabalarda fanga bo'lgan qiziqishni yanada kuchaytiradi.

### **Mavzu bo'yicha savollar:**

1. Orkestr sinfining maqsadi nimadan iborat?
2. Orkestr sinfining vazifalarini aytib bering?
3. Talabalarning ijodiy rivojlanish mezonlari nimalardan iborat?

## 1.2. Orkestr turlari, tuzilishi va joylashuvi

Ma'lumki, Qadimgi Yunonistonda orkestr deb, teatr sahnasidagi xor jamoasi uchun mo'ljallangan joyga nisbatan aytilgan. Bugungi kunda orkestr tushunchasi esa, aniq musiqiy cholg'ulardan iborat jamoani ya'ni ijro etuvchi cholg'uchi-sozandalar jamoasini o'z ichiga oladi. Aniqroq qilib aytganda orkestr tushunchasida - musiqiy cholg'ular tembrlarining o'zaro uzviyligi, chuqur ichki bog'liqlik hamda o'zaro uyg'unlik kabi ma'nolar yotadi<sup>3</sup>.

Musiqa amaliyotida turli xildagi orkestrlar mavjud. Ularning har birida ma'lum tarkib bo'lib, cholg'ular soni ham turlicha. Keng tarqalgan asosiy turlaridan: opera-simfonik, damli, xalq cholg'ulari orkestri, jaz-orkestr. O'z navbatida simfonik orkestrning ham turli ko'rinishlari bor.

**Kamer orkestri** (10-12 ta musiqachi) qadimiy musiqalarning ijrosiga mo'ljallangan tarkib hisoblanadi. Bu jamoa uchun Baxning Brandenburg konsertlari, Vivaldi, Korelli, Gendellarning Concerto grossolari yaratilgan. Kamer orkestrining asosi bo'lmish torli cholg'ularga klavesin, fleytalar, goboylar, fagotlar va valtornalar kabi cholg'ular hamqo'shiladi.

**Torli orkestr** simfonik orkestrning kamonli cholg'ular guruhidan tarkib topgan (P.Chaykovskiyning torli orkestr uchun "Serenada", Onnegerning ikkinchi simfoniyasi)

**Kichik simfonik orkestr (klassik)** bu jamoa XVIII asr oxirida Gaydn va Motsartlarning ijodiy yo'li nihoyasiga yetib, Betxovenning birinchi simfoniyasi yaratilganida paydo bo'ldi. Uning tarkibi torli cholg'ular, yog'och damli, mis damli cholg'ular va zarbli cholg'ulardan iborat.

2 ta fleyta

2 ta goboy

2 ta klarnet

2 ta fagot

2 ta valtorna

---

<sup>3</sup> Н.Зряковский. Общий курс инструментоведения издательства «Музыка» Москва 1976 г.

2 ta truba

Litavrallar

Skripka I

Skripka II

Al'tlar

Violonchellar

Kontrabaslar

1-misol. Y.Gaydn. "Soat" simfoniyasi, II qism

**Andante**

2 Flauti

2 Oboi

2 Clarinetti in A

2 Fagotti

2 Corni in G

2 Trombe in G

Timpani D, G

**Andante**

Violini I

Violini II

Viole

Violoncelli e Contrabassi

Fag.

Vln. I

Vln. II

Vle.

Vc. e Cb.

1.

2.

**Katta simfonik orkestr** XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib paydo bo'lgan. Katta orkestrning kichigidan ajralib turuvchiasosiy farqi bu – uchta trombonlar va tubalarning mavjudligidadir. Bunda orkestrning dinamik muvozanatini saqlash uchun torli cholg'ular guruhidagi musiqachi-sozandalarning soni ko'paytiriladi.

1-jadval

| <b>Cholg'u</b> | <b>Kichik orkestr</b> | <b>Katta orkestr</b> |
|----------------|-----------------------|----------------------|
| Skripka I      | 4 ta pult             | 8-10 pult            |
| Skripka II     | 3 ta pult             | 7-9 pult             |
| Al'tlar        | 2 ta pult             | 6ta pult             |
| Violonchellar  | 2 ta pult             | 5ta pult             |
| Kontrabaslar   | 1 ta pult             | 4-5 pult             |

Katta simfonik orkestrlar tarkibidagi yog'och damli cholg'ularning soni bir-biridan farq qiladi. **Ikkilangan tarkib**da har bir cholg'uning soni 2 tani tashkil qiladi. Bu tarkibga misol qilib, F.Shubertning h-moll simfoniyasi, M.Glinkaning Vals-fantaziyasi, P.Chaykovskiyning birinchi simfoniyalarini keltirishimiz mumkin. Orkestr tarkibida yog'och damli cholg'ularning soni 3 ta (troynoy) (masalan, A.Lyadovning “Yalmog'iz kampir”, Rimskiy-Korsakovning “Oltin xo'roz”, “Shoh Sulton haqidagi ertak” operalari) va 4 tagacha (chetvernoy) ham bo'ladi. Ayrim hollarda birtalik tarkib ham uchraydi. Bunday tarkibli partituralardan S.Prokofyevning “Petya va bo'ri”, Rimskiy-Korsakovning “Motsart va Salyeri” operalarini misol qilishimiz mumkin. Simfonik orkestrda asosiy tarkibdagi cholg'ulardan tashqari taklif etiluvchi cholg'u yoki guruhlar ham qo'shiladi. Bunday tarkib **maxsus tarkib** deb ataladi. Masalan, Rimskiy-Korsakovning “Shaxrizoda”, D.Shostakovichning 7, 8, 10 - simfoniyalari, P.Chaykovskiyning 5-simfoniyasi, “Francheska da Rimini” hamda “Romeo va Juliyetta” uvertyura-fantaziyalari kabi asarlarning partitularida ko'rishimiz mumkin.

Simfonik orkestrning tashkillashuvi qardosh cholg'ularning guruhlarga birlashuvidan vujudga keladi. Shunga ko'ra, simfonik orkestrga quyidagi cholg'u guruhleri kiradi:

- yog‘och damli cholg‘ular guruhi;
- mis damli cholg‘ular guruhi;
- zarbli cholg‘ular guruhi;
- torli-kamonli cholg‘ular guruhi;
- torli-tirnama va klavishli cholg‘ular;



*1-rasm. Simfonik orkestr*

Yog‘och damli cholg‘ular guruhiga fleytalar (katta fleyta, fleyta pikkolo, alt fleyta, bas-fleyta), goboylar (goboy, ingliz surnayi, goboy d‘amur), klarnetlar (klarnet in B, klarnet in A, kichik klarnet in Es, kichik klarnet in D, bas-klarnet in B), fagotlar (fagot va kontrafagot)saksofonlar (saksofon-sopranino, saksofon-soprano, saksofon-al‘t, saksofon-tenor, saksofon-bariton, saksofon-bas, saksofon-kontrabas) kiradi.

Mis damli cholg‘ular guruhiga valtornalar, trubalar (kichik truba, al‘t truba, bas truba, kornetlar), trombonlar (tenor trombon, bas trombon) va tubalar kiradi.

Torli-kamonli cholg‘ular guruhiga skripkalar, altlar, violonchellar va kontrabaslar kiradi.

Zarbli cholg‘ular guruhiga tovush balandligi aniq bo‘lgan cholg‘ular (litavra, ksilofon, qo‘ng‘iroqchalar, qo‘ng‘iroq) va tovush balandligi noaniq bo‘lgan cholg‘ular (uchburchak, kastanettalar, buben, kichik baraban, katta baraban, tam-tam, tarelkalar) kiradi.

Torli-tirnama va klavishli cholg'ular guruhiga arfa, chelesta, klavesin, fortepiano va organ kiradi.

Orkestr sahnada cholg'u guruhlari bo'yicha joylashadi. Yakkaxon cholg'ular albatta oldingi qatorda joylashishi kerak. Alohida ohang effektini ifodalash uchun esa ayrim cholg'ular sahnadan tashqarida (sahna ortida) joylashishi mumkin.


Jahon musiqa madaniyatiga tegishli bo'lgan orkestr joylashuvi turlariga ko'ra, torli cholg'ular aksariyat hollarda oldingi qatorlardan joy egallaydilar. Bunda birinchi skripkalar dirijyordan chap tomonda, ikkinchi skripkalar esa dirijyordan o'ng tomonda o'tiradi. Dirijyorning ro'parasida esa altlar va violonchellar joylashadi.

Orkestr joylashuvining boshqa turida esa, birinchi va ikkinchi skripkalar guruh-guruh bo'lib, dirijyordan chap tomonda joylashadi. Bunday hol skripkalardan taralgan ohangning yanada kontsentratsiyalashuvini ta'minlaydi.

Zarbli cholg'ular har qanday sharoitda sahnaning oxirgi qatorlarida joylashadi.

Simfonik orkestr paydo bo'lganidan buyon musiqachilarning sahnadagi joylashuvi variantlari turlicha bo'lgan. O'tgan vaqt - simfonik orkestrning sahnada joylashuvining aniq prinsiplarini belgilab berdi.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, orkestr joylashuvining ikki asosiy nemischa va amerikanacha turlari shakllandi. **Amerikanacha joylashuv**da birinchi skripkalar dirijyorning chap violonchellar esa o'ng tomonida o'tiradi. Ikkinchi skripkalar birinchi skripkalarining orqa tomonida, al'tlar violonchellarning o'ng tarafida joylashadi. Sahnaning markazida ikki qatorga bo'linib yog'och damli cholg'ular (fleyta, goboy va klarnet, fagotlar) o'tirsa ularning orqasida mis damli cholg'ular – truba, valtorna, trombon va tubalar joylashadi. Zarbli cholg'ular tinglovchilardan uzoqroq, sahnaning chap burchagidan boshlab markazigacha bo'lgan masofada o'tiradi. Arfa dirijyorning chap tomonida joylashadi.



2-*rasm.*

**Nemischa joylashuvning** amerikanchadan farqi shundaki, bunda violonchellar ikkinchi skripkalar bilan joy almashadi. Kontrabaslar esa chap tomonda bo’ladi. Mis damli cholg’ular o’ngroqqa harakatlanib, valtornalar chaproqqa siljiydi. Zarbli cholg’ular bunday holatda kulisning chap qanotida joylashadi.



3-*rasm.*

## 2-misol. Simfonik orkestr partiturasining tuzilishi

Fl. piccolo

2 Fl.

2 Ob.

Cor. ingl.

2 Cl.

Cl. basso

2 Fag.

C-fag.

4 Cor.

3 Tr-be

3 Tromboni  
e  
Tuba

Timpani

Percussioni

Arpa

Violini I


Violini II

Viole

Violoncelli

Contrabassi

# SIMFONIK ORKESTR DIAPAZONI






























2-jadval. Simfonik orkestr cholg'ularining partiturada nomlanishi

| <b>Guruh nomi</b>               | <b>Cholg'u nomi</b> | <b>Italyancha nomlanishi</b>   | <b>Qisqartirilgan nomlanishi</b> |
|---------------------------------|---------------------|--------------------------------|----------------------------------|
| <b>Yog'och-damli cholg'ular</b> | Fleyta              | <i>Flauto (grande)</i>         | <i>Fl.</i>                       |
|                                 | Pikkolo             | <i>Piccolo</i>                 | <i>Picc.</i>                     |
|                                 | Al't fleyta         | <i>Flauto Alto</i>             | <i>Fl.Alto</i>                   |
|                                 | Goboy               | <i>Oboe</i>                    | <i>Ob.</i>                       |
|                                 | Ingliz rojogi       | <i>Corno inglese</i>           | <i>C.ingl.</i>                   |
|                                 | Klarnet B           | <i>Clarinetto in Sib</i>       | <i>Cl.( Sib)</i>                 |
|                                 | Klarnet A           | <i>Clarinetto in La</i>        | <i>Cl.(La)</i>                   |
|                                 | Bas klarnet B       | <i>Clarinetto basso in Sib</i> | <i>Cl.b.( Sib)</i>               |
|                                 | Fagot               | <i>Fagotto</i>                 | <i>Fag,</i>                      |
|                                 | Kontrafagot         | <i>Contrafagotto</i>           | <i>Cfag.</i>                     |
|                                 | Saksofon al't Es    | <i>Sassofono Alto in Mi b</i>  | <i>Sass.Alto (Mi b)</i>          |
| <b>Mis-damli cholg'ular</b>     | Valtorna F          | <i>Corno in Fa</i>             | <i>Cor.(Fa)</i>                  |
|                                 | Truba C             | <i>Tromba in Do</i>            | <i>Tr.(Do)</i>                   |
|                                 | Truba B             | <i>Tromba in Sib</i>           | <i>Tr.(Sib)</i>                  |
|                                 | Tenor trombon       | <i>Trombone (tenore)</i>       | <i>Trb.</i>                      |
|                                 | Bas trombon         | <i>Trombone basso</i>          | <i>Trb.basso</i>                 |
|                                 | Tuba                | <i>Tuba</i>                    | <i>Tuba</i>                      |
| <b>Zarbli cholg'ular</b>        | Litavra             | <i>Timpani</i>                 | <i>Timp.</i>                     |
|                                 | Uchburchak          | <i>Triangolo</i>               | <i>Tri.</i>                      |
|                                 | Buben               | <i>Tambourino</i>              | <i>Tamb.</i>                     |
|                                 | Kichik baraban      | <i>Tamburo</i>                 | <i>Tro.</i>                      |
|                                 | Katta baraban       | <i>Gran cassa</i>              | <i>Gr.C.</i>                     |
|                                 | Tarelka             | <i>Piatti</i>                  | <i>Pti.</i>                      |
|                                 | Ksilofon            | <i>Silofono</i>                | <i>Sil.</i>                      |

|  | Qo'ng'iroqchalar    | <i>Campanelli</i>   | <i>Camp.</i>   |
|--|---------------------|---------------------|----------------|
| <b>Torli-tirnama va klavishli cholg'ular</b> | Arfa                | <i>Arpa</i>         | <i>Ar.</i>     |
|  | Chelesta            | <i>Celesta</i>      | <i>Cel.</i>    |
| <b>Torli kamonli cholg'ular</b>              | Birinchi skripkalar | <i>Violini I</i>    | <i>V-ni I</i>  |
|  | Ikkinchi skripkalar | <i>Violini II</i>   | <i>V-ni II</i> |
|  | Skripka al'tlar     | <i>Viola</i>        | <i>V-la</i>    |
|  | Violonchellar       | <i>Violoncello</i>  | <i>Celli</i>   |
|  | Kontrabaslar        | <i>Contrabbasso</i> | <i>Cb.</i>     |

3-jadval. Transport qilinadigan cholg'ular

| Cholg'u nomi     | Yozilishi   | Eshitilishi   |
|------------------|---|---|
| Pikkolo          |    |    |
| Al't fleyta      |    |    |
| Ingliz rojogi    |    |    |
| Klarnet B        |    |    |
| Klarnet A        |    |    |
| Bas klarnet B    |   |   |
| Saksofon al't Es |  |  |
| Valtorna F       |  |  |
| Valtorna D       |  |  |
| Valtorna E       |  |  |
| Truba B          |  |  |
| Truba A          |  |  |
| Truba D          |  |  |

|                  |   |   |
|------------------|---|---|
| Qo'ng'iroqchalar |  |  |
| Kontrabas        |  |  |

**Mavzu bo'yicha savollar:**

1. Simfonik orkestrning qanday turlari bor?
2. Simfonik orkestr necha guruhdan iborat?
3. Nemischa joylashuvning qanday farqli tomonlari mavjud?

### 1.3. Orkestr partiyalarini o'qish mahorati

Orkestr sinfi mashg'ulotlarida talabalarning nota o'qish ko'nikmasi shakllangan bo'lishi kerak. Albatta orkestr partiyalarini o'qish, mutaxassislik fanidagi notalarni o'qishdan bir muncha farq qiladi. Bunda notalarorkestrning har bir cholg'u guruhlari uchun alohida yozilgan bo'lib, bir vaqtning o'zida dirijyoring qo'l harakatlariga diqqat bilan qarab ijro etish kerak bo'ladi. Simfonik orkestrda ham varoqdan nota o'qish ko'nikmalari o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Partiyani xatoga yo'l qo'ymasdan ehtiyotkorlik bilan o'qish har bir talabadan javobgarlikni talab qiladi. Ba'zan talabalar kuchli psixologik bosim ostida qolib orkestr ijrosi mobaynida texnik xatolarga yo'l qo'yishi mumkin. Shuning uchun orkestr partiyalarini varoqqa qarab erkin o'qish ko'nikmasini shakllantirish kutilgan natijaga olib keladi. Eng oddiy sanalgan partiya ham ayrimhollarda, orkestr bilan bo'ladigan umumiy mashg'ulotlarda o'ziga yarasha bir qator qiyinchiliklarni tug'dirishi mumkin. Orkestr partiyalarini varoqdan o'qish tezligi va sifatiga yo'l-yo'lakay uchrab turadigan al'terasiya belgilari, ritm murakkabligi, har xil qisqartmalar, varoqlash va hattoki nota matnini ko'chiruvchi yoki nusxalovchining ishi ham ta'sir ko'rsatadi.

Talabalarda orkestr partiyalarini o'qish mahoratini shakllantirishda hamda asar ustida ishlashning dastlabki bosqichlarida quyidagilarga e'tibor qaratish lozim bo'ladi:

1. ohang harakatini tahlil qilish;
2. tonikani topish
3. eshitish qobiliyati orqali ladni aniqlash

Keyingi bosqichlarda esa tahlil qilish jarayoni bir oz murakkablashadi:

1. fakturani tahlil etish;
2. musuqiy jummalarni aniqlash;
3. tonnalik o'zgarishlarini aniqlash;
4. sekvensiyalar mavjudligini aniqlash;

### **Mavzu bo'yicha savollar:**

1. Orkestr partiyalarini varoqdan o'qish tezligi va sifatiga nimalar ta'sir ko'rsatadi?
2. Orkestr partiyalarini o'qish mahoratini shakllantirishda hamda asar ustida ishlashning dastlabki bosqichlarini sanab bering?
3. Asarni tahlil qilishning keyingi murakkablashgan bosqichlari nimalardan iborat?

#### 1.4. Orkestr cholg'ularining vazifalari

Simfonik orkestrda shunday cholg'ular mavjudki, ulardagi imkoniyatlarning cheksizligi tufayli turlicha musiqiy obrazlarni ifodalash mumkin. Cholg'ulardagi ohangning tez-tez o'zgarib rang-barang tusga kirishidan go'yoki, yana bir yangi cholg'u namoyon bo'lgandek tuyuladi. Bunga tembrlarni faqatgina mexanik tarzda o'zgartirish (masalan, surdina yordamida) orqaligina emas balki, registrlar va torlar orasidagi tembrlarning xilma-xilligi, shtrixlar va tovush hosil qilishning turli uslublaridan foydalanish bilan ham erishiladi. Bundan tashqari ko'p qirrali xususiyatlarga ega bo'lgan ushbu cho'lg'ularni orkestr rahbari boshqaruvi yordamida birinchi darajali ovoz yo'lidan fon beruvchi vazifani bajarishga olib o'tish yoki aksincha, dramatik obrazdan yoki lirikka, tantanavor xarakterdan simfonik raqslarga xos obrazlarga teng darajada olib o'tish ham mumkin.

**Torli cholg'ular guruhi** boshqa guruhlariga nisbatan ijro uslublariga boy hisoblanadi. Simfonik orkestrda butun torli cholg'ular guruhi partiyalarida vaqti-vaqti bilan kamdan-kam holatlarda asosli ravishda pauzalar kuzatiladi. Kompozitor Iogann Shtraus valslarida skripka partiyasining asar boshidan to oxirigacha to'xtovsiz ijro etishi uchrab turadi. Simfonik orkestrda torli cholg'ular mustaqil rol o'ynaydi. Jumladan bir ovozli (yakka cholg'udan to guruhning unison ijrosigacha) ko'p ovozli, turkum asarning bir qismini to'liqligicha bir xillikdan uzoqlashgan holda ijro etishi mumkin.

**Yog'och damli cholg'ular** orasida esa ijro imkoniyatlari cheklanganlari ham uchrab turadi. Bulardan pikkolo, ingliz rojogi, bas-klarnet, kontrafagot bo'lsa, ma'lum darajada goboy, yorqin tembrga boy, ijrochilik imkoniyatlari baland cholg'ulardan fleyta, klarnet va fagot hisoblanadi. Bu guruh asarning kuy yo'lini alohida yoki boshqa guruhlarining mavzularini ikkilantirgan holda ijro etishi mumkin, ammo kamdan-kam mustaqil ravishda harakatlanadi. Yog'och damli cholg'ular ansambli o'ziga ko'p ovozli bo'lgan butun bir epizodni ijro etishi ham mumkin.

**Mis damli cholg'ular** guruhidan valtorna haqida alohida to'xtalib o'tish lozim. U o'zining ko'p qirrali imkoniyatlari bilan turli xil rollarni bajaradi: garmonik fon,

pedal, solo, lirik yoki dramatik xarakterni yetkazish, ba'zan esa qahramonona mazmun va boshqalar. Boshqa tomondan esa, valtornaning tembri qolgan guruhlardagi cholg'ularning tembri bilan juda ham yaxshi birlashadi. Mis damli cholg'ulari guruhining qolgan a'zolari ya'ni trubalar, trombonlar va tuba esa nisbatan kamroq obrazlarni aks ettiradi: asosan tantanavor, ulug'vor, jangovor, g'azabli va boshqalar. Ko'pincha bu guruh asarning dramatik kulminatsiya qismida cho'zib turiladigan tovushlar bilan namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, misli damli cholg'ularning tembri, xoral akkordlarni ham aks ettirishga mos keladi.

Simfonik musiqada **zarbli cholg'ular** guruhi kamdan-kam mustaqil ravishda harakatlanadi. Bu guruh kuydagi obrazlarni tasvirlashda yoki boshqa guruhlarini qo'llab-quvvatlash asosiy rol o'ynaydi. Litavralar odatda kuydagi taranglikni kuchaytirishda, muhim dramatik jummalarni tayyorlashda, xarakterli ritm va aksentlarni ifodalashda qo'l keladi. Uchburchak va tarelkaning zarblari esa, ohangga yorqinlik, yorug'lik olib kiradi. Tarelkadagi tremolo esa orkestrning *crescendolarida* qo'llaniladi. Qo'ng'iroqlar "Sehrli fleyta" operasida mustaqil ravishda rol o'ynagan bo'lsa, bugungi kun partituralarida u kuy yo'llarining ma'lum bir bo'laklarini yanada yorqin jaranglashiga yoki yog'och damli cholg'ular guruhining yuqori registrlarini bezatishga xizmat qilib kelmoqda.

### **Mavzu bo'yicha savollar:**

1. Torli cholg'ular guruhining simfonik orkestrdagi funksiyasi haqida so'zlab bering?
2. Yog'och damli cholg'ular guruhi orasida boshqalariga nisbatan ijro imkoniyatlari past bol'gan cholg'ularning nomini ayting?
3. Valtornaning simfonik orkestrdagi o'rni va roli qanday?
4. Zarbli cholg'ular guruhidagi qaysi cholg'u asarning muhim dramatik jummlarini tayyorlaydi?

## 1.5. Orkestrda tovush hosil qilish imkoniyatlari

Simfonik orkestrda ijro etish uchun avvalambor har bir guruhdagi cholg'ularning tovush hosil qilish Imkoniyatlarini jumladan, artikulyatsiyaviy-shtrixlar majmuasini to'laqonli bilish lozim. Bu esa talabalarning musiqiy mazmuni shakllantirishida, jumladan har bir tovushni to'g'ri jaranglatish yoki so'ndirishi, talaffuz etishiga olib keladi. Shtrixlar texnikasi – bu har qanday darajadagi ijrochilik amaliyotining muhim komponentlaridan biri hisoblanadi. Ushbu texnikani to'laligicha egallash talabaniyuksak mahoratli ijrochi bo'lib yetishishida yordam beradi.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, musiqachi-sozandaning orkestr ijrochiligi faoliyatida artikulyatsiya va shtrixlarning roli ansambl yoki yakka ijrolarga nisbatan ancha farq qiladi. Kamer ansambllar ijrosidagi artikulyatsiya va shtrixlar hamohangligini orkestrda amalga oshirilsa bir qator o'zgarishlarga olib keladi. Buning asosiy omillaridan biri bu, orkestrdagi ovozlarning miqdori hamda ijro etiladigan partiyalarning artikulyatsion rejasidir.

**Stakkato.** Fortepiano klavishining zarbidan jaranglagan tovush tezda so'nmaydi, garchi barmoqni klavishdan olgan bo'lsa-da ma'lum bir lahza ohang yangrab turadi. Orkestrda ham bunday cholg'ular talaygina. Masalan, violonchelning pastdan uchunchi tori hamda kontabasdagi *pizzicato* ijrosi xuddi fortepiano torlariga o'xshab bir muddat jaranglaydi. Zarbli cholg'ulardan litavra va katta barabanlarni ham misol qilib keltirishimiz mumkin. Litavra qozonining o'rta qismiga qattiqroq zarb bilan ijro etilsa, chap qo'l bilan terini yopib ovozni tezda so'ndirish, chekkaroq qismidagi zarblardan esa quruqroq va qisqa tovushlar hosil qilish mumkin. Zarurat tug'ilsa bunday hollarda partiyalarda *secco* deb yoziladi.

3-misol

markaziga chekka qismiga

Timp. *pp*

The musical notation shows a single staff for Timpani (Timp.) in 2/4 time. The key signature has one flat (B-flat). The notation consists of two measures. The first measure starts with a quarter note on the second line (G4), followed by a quarter rest. The second measure starts with a quarter note on the second line (G4), followed by a quarter rest. The dynamic marking *pp* is placed below the first measure.

Hattoki fortepianodan ham uzoq vaqt davomida tovushi jaranglab turuvchi cholg'ular ham bor. Bularga arfa va qo'ng'iroqchalarni kiritishimiz mumkin. Yog'och

damli cholg'ular orasidan fleyta va pikkololarda stakkato shtrixi yorqin jaranglaydi. Bularda hattoki ikkitalik va uchtalik stakkatolarni ijro etish imkoniyati bor. Goboy va fagotlarda esa bu quvnoq xarakterda hosil bo'ladi.

Valtorna va trubalar stakkatoni takroriy tovushlarni ijrosiga qaraganda ma'lum bir o'zgaruvchan tovush balandligida ijro etgani qulay. Trombon va tubalarda esa bu shtrix ko'pincha vazmin suratlarda uchraydi.

#### 4-misol

G. Berlioz Rakosi-marsh



Stakkato shtrixi haqida so'z borganda aniq tovush balandligiga ega bo'lgan zarbli cholg'ulardan ksilofon haqida to'xtalib o'tish joiz. Uning quruq va o'tkir tovushi juda tez suratlarda ham tiniq yangraydiki buni, partiyasidagi notalarni nuqtalar yordamida ham belgilash shart emas.

Torli cholg'ular guruhida ushbu shtrix bir necha xil xarakterlarni ifodalaydi. Bundan tashqari kamon yordamida rang-barang obrazlarni gavdalandiradigan shtrixlar, to'satdan paydo bo'luvchi tovushlarning davomiyligiga qarab turli ko'rinishlarini belgilaydi:

1. **Staccato.** Notalarning tepa qismiga nuqta belgisi qo'yiladi. Tovushlarning davomiyligi esa teng yarmiga jaranglaydi.

2. **Martellato.** Stakkatoga o'xshab nuqta bilan belgilanadi. Asosan *f* dinamikasiga erishish maqsadida qo'llaniladi. Orkestrning *ff* larida va maxsus o'tkir tovushlar kerak bo'lganida quyidagi belgi notalarning tepa qismiga yoziladi:

#### 5-misol




#### 6-misol

VI.I. **Allegro**

**3. Detache.** Klassik skripka adabiyotida xos xarakterli shtrix hisoblanadi: har bir tovushdan so'ng kamonlar harakati alamashadi, ammo ularning orasida pauzalar bo'lmaydi.

**4. Loure.** Bu stakkato va legato shtrixi orasida o'tadigan tovush hosil qilishning bir turi bo'lib bunda, tovushlar bir-biri bilan liga yordamida bog'langan bo'ladi. U quyidagicha belgilanadi:

7-misol



Bu ifodaviy shtrixni qo'llashda ijrochi kamonni yuqoriga harakatlantiradi va ko'pincha asosiy kuy yo'llarida *espressivo* atamasi bilan birgalikda keladi.

8-misol

P.Chaykovskiy 5-Simfoniya

VI.I. **Andante cantabile**

Sul IV

**Legato.** Bu shtrix damli va torli cholg'ularda ham bir xil, liga belgisi yordamida yoziladi. Yog'och damli va torli cholg'ular guruhining legatolari sifatiga ko'ra fortepianoning legatosiga o'xshaydi. Biroq mis damli cholg'ularning legatosi haqida bunday deya olmaymiz. Ularda tovushlarning bog'lanishi portamentoni eslatadi.

Yog'och damli cholg'ularda legatoni ijro etish imkoniyati barmoqlarning texnikasi hisobiga chegaralangan. Bu tovushlar orasidagi intervalga bog'liq. Tovushlarni bir-biriga bog'lash uchun barmoqlar yordamida klapan yoki teshiklarni yopishi kerak bo'ladi.

Torli cholg'ular partiyasidagi liga ikki xil ma'noga ega. Solo asarlarda, pedagogik adabiyotlarda uchrab turuvchi tovushlarni umumiy bog'lovchi ligalar, bir kamon harakatida ijro etilishi ya'ni liganing davomiyligiga qarab kamon yuqoriga yoki pastga harakat qilishi uslubiyotda anchadan beri qo'llanilmoqda.

**Trel va tremolo.** Orkestrdagi trelning roli har doim ham fortepianonikiga o'xshamaydi. Sababi turli tembrdagi har xil cholg'ularning baravariga trel ijro etishi natijasida dissonans uyg'unlik hosil bo'lishi mumkin. Shuning uchun torli cholg'ularning cho'zib turuvchi tovushlarini yog'och damli cholg'ular trel yordamida ikkilantiradi yoki aksincha bo'lishi mumkin. Ayrim trellar aniq bir akkordning koloritini berishda yoki orkestrdagi ohangni yanada yorqin yangrashiga xizmat qiladi. Qolganlari esa fortepianodagi trelga o'xshab bir xil vazifani bajaradi. Quyidagi ilovada misollar orqali qo'llanilishi mumkin va mumkin bo'lmagan trellar keltirilgan:

9-misol

### Simfonik orkestrda trellar

The image displays four staves of musical notation for a symphonic orchestra, each illustrating a different type of trill (tr). The staves are labeled as follows:

- Flute:** Shows a trill starting on a middle note and ascending to a higher note. An annotation "faqat fortessimoda" is placed below the staff.
- Fl. picc.:** Shows a trill starting on a middle note and ascending to a higher note.
- Ob.:** Shows a trill starting on a middle note and ascending to a higher note. An annotation "istisno tariqasida" is placed above the staff.
- Cor. ingl.:** Shows a trill starting on a middle note and ascending to a higher note.

Each staff includes a treble clef, a key signature of one sharp (F#), and a common time signature (C). The trills are marked with "tr" above the notes. The notes are connected by a wavy line to indicate the trill effect.



Yog'och damli cholg'ularda tremoloni ijro etish variantlari xilma-xil. Ammo mis damli cholg'ular bu ijro uslubini hosil qila olmaydi. Torli cholg'ulardagi chap qo'l tremolosiga to'laroq tavsif beradigan bo'lsak, bunda trel kabi chap qo'lning ikkita barmog'i tovushlarni navbatma-navbat almashtirib, kamon davomiy to'xtovsiz harakatlanadi. Chap qo'l tremolosi ma'lum interval orasida bitta torda shakllanadi. Intervallarning jaranglashi barmoqlarning texnikasi bilan chegaralanadi. Orkestrda bunday tremoloning ikkala tovushi ham ijro mobaynida aniq jaranglamaydi. Sababi guruhdagi sozandalarning barchasida barmoqlar almanishuvi baravariga sodir bo'lmaydi. Bu ikkala tovush yordamida akkordning garmonik funksiyasi tengligi ta'minlanadi. Quyidagi ikkita partiyadagi bo'linishda esa tremoloning boshlanishi bilanoq ikkala tovush baravariga jaranglaydi:

**Aksentlar.** Orkestr partituralarida asosan *sf* belgisi orqali taktdagi kuyning nooadiy yoki kuchli hissalarida aksentlar uchraydi. Biroq aksentlar musiqaaning

mazmun-mohiyatiga qarab turlicha bo'lishi mumkin. Bunda faqatgina *sf* belgisini yozish kamlik qiladi. Orkestrda aksentni ifodalashning yana bir yo'li mavjud. Asosiy kuy yo'lini ijro etayotgan bir guruhga qolgan cholg'ular aksentli tovushlar yordamida jo'r bo'ladi. Quyidagi misolda bunday aksentning oddiy ko'rinishini ko'rishimiz mumkin:

## 12-misol

L. Betxoven. 9-Simfoniya

**Molto vivace**

Bunday funksiyani simfonik orkestrdagi har qanday cholg'u bajarishi mumkin. Quyida aksentlarni ifodalashning eng ko'p qo'llaniladigan turlarini keltirib o'tamiz:

1. Pizzicato – solo yoki yog'och damli va valtornalarning akkordlarini bo'rttiradi. Dinamik imkoniyati *pp* dan *p* gacha.

2. Mis damli cholg'ularning qisqa akkordlari boshqa guruhlardagi aksentli tovushlarga jo'r bo'lishi. Bu vazifani Vena klassik maktabi orkestridagi ikkita truba va ikkita valtornalar yordamida amalga oshirilganini ko'rishimiz mumkin. Dinamik imkoniyati *p* dan *ff* gacha.

## 13-misol

**Presto**

Cor.ingl.

2 Cl.in B $\flat$

Cl.b.in B $\flat$

2 Fg.

4 Corni in F

3 Trb. e

Tuba

VI. I.

VI. II.

Vlc.e Cb.

*p cresc.* *sf* *p cresc.* *sf*

*p cresc.* *sf* *p cresc.* *sf*

*p cresc.* *sf* *p cresc.* *sf*

3. Damli cholg'ulardagi kuyning aksentli tovushlarini torli cholg'ulardagi uch va to'rt tovushli akkordlari yordamida bo'rttirish. Dinamik imkoniyati faqatgina *f* dan *ff* gacha.

14-misol

**Allegretto con moto**

Borodin. "Orta Osiyoda"

The image shows a page of a musical score for orchestra, titled "Allegretto con moto" by Borodin, "Orta Osiyoda". The score is written in 2/4 time and features a variety of instruments. The woodwind section includes two flutes (2 Fl.), two oboes (2 Ob.), one English horn (Cor. ingl.), two clarinets in A (2 Cl. in A), and two bassoons (2 Fg.). The brass section consists of four horns in F (4 Cor. in F), two trumpets in F (2 Tr. in F), and three trombones (3 Trb.). The percussion section includes timpani (Timp.). The string section includes two violins (VI. I. and VI. II.), two violas (Vle. and Vlc.), and a double bass (Cb.). The score is marked with a forte dynamic (*ff*) throughout. The woodwinds and strings play a melodic line, while the brass and percussion provide a rhythmic accompaniment. The woodwinds have some articulation marks (v) and dynamic markings (*ff*). The brass and strings play a steady rhythm with some articulation marks (v). The timpani play a steady rhythm with some articulation marks (v). The violins and violas play a steady rhythm with some articulation marks (v). The violas and double bass play a steady rhythm with some articulation marks (v).

Orkestrning *tutti* ijrosi paytida fleyta pikkoloning yuqori registrdagi forshlagli tovushi yordamida ham kuy yo'lidagi aksentni ifodalash mumkin.

Musorgskiy. "Taqir tog'dagi tun"

**Allegro vivace**

The musical score is for an orchestra and includes the following parts:

- Piccolo
- 2 Fl.
- 2 Ob.
- 2 Cl. in B $\flat$
- Fg. I
- 4 Cor. in F
- 2 Tr. in B
- 3 Trb.
- Tuba.
- Timp.
- VI. I.
- VI. II.
- Vle.
- Vlc.
- Cb.

The score is in 2/2 time and features various dynamics and articulations, including *f* (forte) and *mf* (mezzo-forte). The tempo is marked **Allegro vivace**. The key signature is one flat (B $\flat$ ).

Zarbli cholg'ular tabiatiga ko'ra har qanday aksentlarni ijro etishi mumkin. Asosan raqs musiqalarida aksentlarni har bir taktda mexanik tarzda doimiy ravishda

takrorlab turadi. Zarbli cholg'ular ijrosi har doim musiqiy mazmuni yoritib berishda hamda musiqiy shaklning rivojlanishida muhim rol o'ynaydi.

## 16-misol

Musorgskiy. "Taqir tog'dagi tun"

**Allegretto**

The musical score consists of seven staves. The top staff is for Flute I (Fl. I.) with the tempo marking **Allegretto**. The second staff is for Clarinet in Bb (Cl. I. Bb) with the instruction *dolce leggieramente*. The third staff is for Timpani (Timp.) with a dynamic marking of *p*. The fourth staff is for Trombone/piccolo (Tb.picc.) with a dynamic marking of *pp*. The fifth staff is for Percussion (Ptti) with a dynamic marking of *pp*. The sixth and seventh staves are for Violin I (VI. I.) and Violin II (VI. II.) respectively. Both violin staves feature a rhythmic pattern of eighth notes with dynamic markings of *p* and *f*, and performance instructions including *pizz.*, *arco*, and triplet markings.

**Dinamika.** Orkestrda tovush hosil qilishning muhim jihatlardan biri bu – dinamik belgilardir. Sodda qilib aytganda sokin dinamikalarni ifodalashda cholg'ularning soni kam bo'lishi kerak bo'lsa, yuqori dinamik cho'qqiga erishish uchun esa, orkestrning barcha cholg'ulari ishtirok etadi. Albatta, bitta klarnetning so'ngan ovozi *pp* dinamikasi taasurotini qanday bersa, to'liq tarkibdan iborat orkestr ham (truba, trombon va litavralar bilan) bundan mustasno emas.

## 17-misol

Piccolo  
 2 Fl.  
 2 Ob.  
 Cor Anglais  
 2 Cl. in B $\flat$   
 Bass Clarinet in B $\flat$   
 Fg. I  
 6 Cor. in F  
 2 Tr. in D  
 Timp.  
 VI. I.  
 VI. II.  
 Vle.  
 Vlc.  
 Cb.

Dinamik kulminatsiyaga truba, valtorna, zarbli cholg'ular hamda xor jamoalari ishtirokisiz ham birgina torli cholg'ular bilan erishiladi. Bunga Vena klassiklari asarlaridagi *tutt*ilarini misol keltirishimiz mumkin. Bundan tashqari torli cholg'ularning bir yoki ikkita partiyasi (masalan birinchi va ikkinchi skripkalar yoki

violonchel va kontrabaslar) bilan ham tegishli registrlarda hech qanday ikkilangan ovozlari va yordamchi tovushlarsiz to'laqonli *ff* dinamikasini ifodalashi amaliyotda uchrab turadi.

### 18-misol

Betxoven. 9-Simfoniya



Bundan kelibchiqib aytishimiz mumkinki, orkestrning dinamikasi cholg'ular soniga bog'liq bo'lmaydi. Har bir guruhning *ff* dinamikasida o'ziga xos kuchli jaranglash imkoniyatiga ega. Quyidagi misolda guruhlarning barchasida bir xil dinamika yozilganiga qaramay, tovushlar birin-ketin kuchayib boradi:

### 19-misol

